

Kafedra mudiri:

t.f.n., dotsent, Eshmuradov Abdimurod Mengtashevich

**Qabul vaqti:** Seshanba, Payshanba 15:00 dan 16:00 gacha

**Telefon:** (0 371) 238-65-56

**E-mail:** [eshmuradov@tuit.uz](mailto:eshmuradov@tuit.uz)

TATU rektorining 2013 yil 29 avgustdagi 905-sonli buyrug'iga asosan sobiq "Telekommunikatsiya tarmoqlari va kommutatsiya tizimlari" va "Telekommunikatsiya uzatish tizimlari" kafedralari bazasida "Telekommunikatsiya injiniringi" kafedrasini tashkil etildi. T.f.n. dotsent A.M.Eshmuradov esa kafedra mudiri lavozimiga tayinlandi. Hozirgi vaqtda yangi tashkil etilgan kafedrada jami 20 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat yuritmoqda. Shulardan: 1 nafar fan nomzodi, professor; 4 nafar fan nomzodlari, 5 nafar dotsentlar; 5 nafar katta o'qituvchi hamda 8 nafar assistent o'qituvchilardir.

### **"Telekommunikatsiya tarmoqlari va kommutatsiya tizimlari" kafedrasini tarixi**

Telekommunikatsiya tarmoqlari va kommutatsiya tizimlari" kafedrasini universitetimizning "qaldirg'och" mutaxassislik kafedrasini bo'lib, u 1957 yilda tashkil qilingan va avval "Telefon aloqasi" kafedrasini deb, so'ngra 1964-1998 yillar davomida "Avtomatik elektr aloqasi" kafedrasini, 1998-2013 yillar davomida "Telekommunikatsiya tarmoqlari va kommutatsiya tizimlari" nomi bilan faoliyat olib bordi. Unga birinchi kafedra mudiri qilib V.Ye.Korotkevich tayinlangan edi. Dastlabki yillarda kafedrada "Telefon aloqasi", "Telegraf aloqasi" va "Aloqa korxonalarining elektr ta'minoti" fanlaridan mashg'ulotlar olib borilgan.

Bu yillar davomida kafedraga turdosh elektrotexnika aloqa institutlari kafedralari katta uslubiy yordam ko'rsatishgan. Bu ishda ayniqsa Leningrad elektrotexnika aloqa institutining telefoniya kafedrasini dotsenti, davlat mukofot laureati N.V. Zapletinning xizmatini alohida e'tirof etish kerak. U birinchi talabalikka qabul qilingan yoshlarga "Telefoniya" fani bo'yicha ma'ruza va amaliyot mashg'ulotlarini o'tkazgan, shuningdek o'quv laboratoriyalarini tashkil etish va jihozlashda faol ishtirok etgan.

Kafedraga shuningdek Moskva, Leningrad va Odessa shaharlaridagi turdosh institutlarning professor-o'qituvchilari - M.M.Jdanov, R.A.Avakov, O.N.Ivanova, Z.S.Kaxanova, V.N.Roginskiy, B.S.Livshits kabi professorlar o'quv metodik ishlar va ilmiy ishlarni shakllantirish va yo'lga qo'yishda katta yordam berishgan.

1958-1959 o'quv yilida kafedraga LEAI bitiruvchisi, texnika fanlari nomzodi, dotsent N.V.Reshetnikov kafedra mudiri etib tayinlandi. U bilan birga shu yillarda O'zbekiston aloqa vazirligi xodimi V.K.Obidin, MEAI bitiruvchilari V.M.Son va L.V.Suslovlar ham shu kafedrada mehnat faoliyatlarini boshladilar.

Telekommunikatsiya tarmoqlari va kommutatsiya tizimlari" kafedrasida turli yillar davomida katta o'qituvchi V.V.Semchenko, dotsentlar M.Sh.Zohidov, E.X.Allaev, professor V.M.Son va dotsent N.H.Gulto'raevlar kafedra mudiri bo'lib faoliyat yuritishgan.

Kafedra yosh o'qituvchilari muntazam ravishda Sobiq Ittifoq aloqa institutlariga aspiranturada maqsadli o'qishga yuborildilar. Ulardan birinchisi kafedrada diplom loyihasini himoya qilgan, Toshkent elektrotexnika aloqa institutini ikkinchi yili bitirgan mutaxassislardan biri M.Sh.Zohidov edi. U 1965 yilda Leningrad elektrotexnika aloqa institutining "Telefon aloqasi" kafedrasida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib qaytdi va keyinchalik institutda "Avtomatik elektr aloqa"(AEA) fakulteti dekani, o'quv ishlari bo'yicha prorektor, so'ngra Respublika aloqa vaziri o'rinbosari lavozimlarida faol mehnat qildi. O'tgan asrning 70-80 yillarida kafedraga nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilib qaytgan bir qator iqtidorli yosh mutaxassislar kelib qo'shildilar. Bular qatorida dotsentlar E.X.Allaev, V.I.Suvorov, V.N.Sarev, N.S.Xodjaev, A.M.Eshmuradov, S.S.Parsiev, R.A.Sharipov, A.A.Adiyarov, R.P.Abduraxmonovlar bor edilar. 90-yillarda G.S.Kotlobulatova, A.A.Kurmishevalar nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, pedagogika fanlari nomzodi

ilmiy darajasini oldilar.

Professor V.M.Sonning "Parallel komutatsiya paketi" ishi 2003 yil AQShda ixtiro sifatida tan olindi va unga mualliflik guvohnomasi berildi. 2003-2004 yillarda kafedra o'qituvchilari tomonidan AQSh da ingliz tilida 4 ta ilmiy maqola chop etildi.

Kafedra katta o'qituvchisi S.A. Sadchikova 2012 yili (professor V.M.Son rahbarligida) «Модели и методы расчета широкополосных ассоциативных сетей коммутации» mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

### **"Telekommunikatsiya uzatish tizimlari" kafedrasini tarixi**

Telekommunikatsiya uzatish tizimlari kafedrasini universitetning "qaldirg'och" mutaxassislik kafedralaridan biri bo'lib, u 1958 yilda tashkil etilgan va dastlab "Uzoq aloqa" kafedrasini deb yuritilgan. Kafedra 1964-1965 o'quv yilidan boshlab "Ko'p kanalli elektr aloqa", 1998-1999 o'quv yilidan boshlab esa "Telekommunikatsiya uzatish tizimlari" deb nomlandi.

Markaziy aloqa ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi M.U.Polyak birinchi bosqich ko'p kanalli elektr aloqa texnikasini yaratishda qatnashgan va Leningrad elektrotexnika aloqa instituti (LEAI) o'qituvchisi texnika fanlari nomzodi, dotsent N. Tixomirovlar kafedraga birinchi o'qituvchilar qilib yuborilgan edilar. Ular ko'p kanalli aloqa apparaturalarining birinchi avlodini ishlab chiqishda ishtirok etdilar. Kafedrada aloqa texnikumi o'qituvchilari va Respublika aloqa vazirligi yetakchi mutaxassislari mashg'ulotlar olib bordilar. Bular safiga Moskva va Leningrad elektrotexnika aloqa institutlari (MEAI va LEAI) ni tugatib kelgan M.G. Vasileva, N.Ye.Suslovlar qo'shildilar. "Telekommunikatsiya uzatish tizimlari" kafedrasiga birinchi mudir etib N.Ye.Suslov tayinlandi. Kafedrani 1962-1972 yillar davomida Leningraddagi "Dalnaya svyaz" korxonasi ilmiy xodimi lavozimida ishlagan va ko'p kanalli signallarni zichlashtirish uskunalari ishlab chiqishda ishtirok etgan, texnika fanlari nomzodi, dotsent A.P.Chernenko boshqardi.

1972 yili kafedraga t.f.n., dotsent I.R.Berganov mudir etib saylandi. Bir yildan so'ng kafedraga fan nomzodlarini tayyorlash huquqi berildi. Kafedrada 1970 yillarning boshida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib qaytgan X.A.Sharifova, aspiranturani tugatib qaytgan R.I.Isaev, B.K.Abidov, F.B.Kuzaxmetova, V.S.Smorshevskiyalar ish boshladilar. Ular safiga Toshkent shahar telefon aloqasi stansiyasidan L.N.Torskaya kelib qo'shildi. 70-yillarda kafedra o'z ilmiy yo'nalishini shakllantirdi. "Uzatish tizimlarining xizmat qilishga yaroqliligi va uni oshirish choralarini ishlab chiqish", "Birlamchi aloqa tarmog'ining texnik xizmatini avtomatlashtirish" mavzularida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi.

1975-1982 yillarda R.I.Isaev, M.N.Baxtiyorov, M.A.Akilxanova va V.S.Smorshevskiyalar nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar.

1982 yilda kafedraga texnika fanlari nomzodi, dotsent H.A.Sharifova mudir etib saylandi.

1983yili katta o'qituvchi R.I.Isaev rahbarligida aloqa sohasidagi oliy o'quv yurtlar orasida birinchi bor 30 ta telefon kanaliga mo'ljallangan tolali optik uzatish tizimi ishlab chiqildi, tayyorlandi va ishga tushirildi. Shu yili kvant generatorlari ixtirochilaridan biri, Nobel mukofoti laureati, SSSR FA akademigi A.M.Proxorov va SSSR FA muxbir a'zosi Ye.M.Dianovlar institutga tashrif buyurdilar. Ular kafedra laboratoriyasida bo'lib va axborotni tolali optik tizimi orqali uzatish bo'yicha laboratoriya ishlari bilan tanishib, bu ishlariga yuqori baho berdilar. 1984-yili R.I.Isaev birinchi bor ko'p kanalli elektr aloqa fakulteti talabalariga "Optik tolali raqamli uzatish tizimlari" kursidan ma'ruza o'qiy boshladi va uning rahbarligi ostida O'rta Osiyo Respublikalari va Qozog'istonda birinchi bo'lib Toshkent shahri 34- va 41-ATS lari o'rtasida 4 km li tolali optik aloqa liniyasi qurildi. 1989 yilda Tosh TTS va Zangiota tumani markazi o'rtasida 16 km. uzunlikli xududiy tolali optik aloqa liniyasi qurilib, bu liniya orqali 120 ta telefon kanalini uzatish ishlari tashkil etildi. Institut o'quv ishlab-chiqarish bazasida aloqa obyektlarini barqaror elektr energiyasi bilan ta'minlovchi 250 vattli gibrid quyosh-shamol tizimi ishlab chiqildi va qurildi. 1997-2004 yillarda 5 kVt.li, 10 kVt.li gibrid stansiyalar qurildi, 2014 yilda "O'zbektelekom" AJ 40 dan ortiq obyektlarida quyosh elektrostansiyalari

ishga tushirildi va 2010 yilda O'zbekiston Respublikasi nomidan O'zbekiston axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish Vazirligi orqali "Elektr aloqani rivojlantirish" Xalqaro konferensiyasida "Qishloq joylarda va ommaviy elektr tarmog'idan uzoq joylarda joylashgan obyektlarni barqaror elektr energiya bilan ta'minlovchi quyosh-shamol-dizel generatorli elektrostansiya" nomli ulush qabul qilindi va 2015 yilda uni qurish ishlari olib borilmoqda.

O'tgan asrning 80-yillari oxirlarida o'z ilmiy izlanishlarini yakunlab, B.M. Maxkamjonov (dotsent R.I.Isaev rahbarligida) va S.N.Ursov nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar.

1991 yil sentabrdan 2005 yil yanvar oyigacha kafedra mudiri vazifasini yana dotsent I.R.Berganov bajardi.

1996 yili kafedra tomonidan Toshkent telegraf-telefon stansiyasida uning filiali tashkil etildi. Kafedra filiallariga turli yillar davomida t.f.n., dotsent M.Sh.Zaxidov, R.D. Sulaymonov, A.G. Voytsexovskiy, t.f.d., dotsent S.A.Agzamovlar mudirlik qildilar.

2002-yili kafedra aspiranti V.A.Chanishev (dotsent I.R.Berganov rahbarligida) nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

2005-2006 o'quv yilidan boshlab kafedra qayta tashkil etilib, uning tarkibiga "Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish" kafedrasini a'zolari ham qo'shildilar va kafedraga texnika fanlari nomzodi, dotsent R.I. Isaev mudir etib tayinlandi. 2005-2011 yillar davomida kafedra dastlab texnika fanlari nomzodlari, dotsentlar M.P.Parpiyev, X.M.Xoshimov, katta o'qituvchilar R.N.Radjabova, R.K.Atametov, G.J.Axmedova, L.P.Byldina, U.N.Karimova, G.X.Mirazimova, N.A.Poletaeva, assistentlar D.X.Ibatova, N.A.Karimova, G.Q.Muratova, G.S.Raxmonova, Sh.A.To'laganovlar tarkibida faoliyat ko'rsatdi. 2006/2007 o'quv yilidan boshlab, ular safiga kafedraga "Elektronika va sxemotexnika" kafedrasidan taklif qilingan f.-m.f.n., dotsent N.Yu.Yunusov qo'shildi. 2009/2010 o'quv yilida kafedra yana bir bor qayta tashkil etilib, uning tarkibiga "Aloqa liniyalari" kafedrasini a'zolari – dotsentlar B.Davletyarov, S.S.Sidiqov, katta o'qituvchilar – S.N.Dudyuk, R.Z.Kamaliddinov, R.O'.O'ktamov, assistent O.X. Nushtaevlar ham qo'shildilar.

Kafedra aspiranti J.D.Muqimov 2011 yili (t.f.n., dotsent R.I.Isaev rahbarligida) «Защита информации каналов телекоммуникационных систем передачи» mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

Kafedra mudiri R.I.Isaev va dotsent N.Yu.Yunusovlarning tashabbuslari va faol harakatlari natijasida kafedrada 2007/2008 o'quv yilidan boshlab "5A522203 – Aloqa va axborotga ishlov berishning optik tizimlari" mutaxassisligi bo'yicha magistratura ochildi. 2007/2008–2011/2012 o'quv yillari davomida uni 44 ta magistrant muvaffaqiyat bilan tugatdi. 2012/2013–2013/2014 o'quv yillari davomida "5A301803 – Axborot o'lchov tizimlari" mutaxassisligi bo'yicha 9 ta magistrant magistrlik dissertatsiyasini himoya qildi. Bugungi kunda ular Respublikamiz va horijiy mamlakatlarda telekommunikatsiya va axborotlashtirish sohalarida faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Shu yillar davomida kafedrada magistratura talabalari uchun "Optik aloqa nazariyasi", "Axborotga optik ishlov berish usullari va vositalari", "Optoelektron qurilmalar sxemotexnikasi", "Telekommunikatsiya tizimlarining barqaror ishlashi nazariyasi", "Patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatlashtirish" fanlari bo'yicha ma'ruza, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar olib borildi.

Kafedrada R.I.Isaev tashabbusi va rahbarligida "Optik aloqa asoslari" laboratoriyasi tashkil etilib, u optik aloqa tizimlarining aktiv va passiv elementlari xarakteristika va parametrlarini va mazkur tizim ish xususiyatlarini tadqiq etish imkonini beradigan zamonaviy laboratoriya qurilmalari bilan jihozlandi.

Bu ishlarning natijasi e'tiborga olinib, universitet Iliy kengashi qarori bilan R.I.Isaev kafedra professori lavozimiga, R.N.Radjabova dotsent lavozimiga o'tkazildi.

2011-2013 yillar davomida kafedraga t.f.n. J.T.Maxsudov, t.f.n., dotsent M.P.Parpiyevlar mudirlik qildilar.

Kafedrada u tashkil etilgan vaqtdan boshlab 4000 ga yaqin mutaxassislar tayyorlandi, 400 ga yaqin ilmiy maqolalar, 5 ta darslik yaratildi, 100 ga yaqin uslubiy va o'quv qo'llanmalari chop etildi, 20 ta ixtiroga

mualliflik guvohnomasi olindi, 6 ta nomzodlik, 60 ga yaqin magistrlik dissertatsiyalari himoya qilindi.

### **"Telekommunikatsiya injiniringi" kafedrasining yangi tarixi**

TATU rektorining 2013 yil 29 avgustdagi 905-sonli buyrug'iga asosan sobiq "Telekommunikatsiya tarmoqlari va kommutatsiya tizimlari" va "Telekommunikatsiya uzatish tizimlari" kafedralari bazasida "Telekommunikatsiya injiniringi" kafedrasini tashkil etildi. T.f.n. dotsent A.M.Eshmuradov esa kafedra mudiri lavozimiga tayinlandi. Hozirgi vaqtda yangi tashkil etilgan kafedrada jami 20 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat yuritmoqda. Shulardan: 1 nafar fan nomzodi, professor; 4 nafar fan nomzodlari, 5 nafar dotsentlar; 5 nafar katta o'qituvchi, 8 nafar assistent, 1 nafar stajyor-o'qituvchilardir.

Qariyb so'nggi 10 yil davomida kafedraning professor-o'qituvchilari ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy ishlar borasida salmoqli yutuqlarga erishdilar. S.A.Sadchikova (2012 y.) hamda [UNICON.UZ](http://UNICON.UZ) DUK da faoliyat yuritayotgan J.D.Mukimov (2012 y.) lar t.f.n., prof. V.M.Son, t.f.n., prof. R.I.Isaevlar rahbarligida nomzodlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildilar.

Hozirda kafedra assistenti A.A.Muradova (t.f.d., professor T.N.Nishanbaev rahbarligida) «Модели и алгоритмы исследования надеждностных показателей сети следующего поколения в условиях загруженности ее компонентов» mavzusida, assistent X.G.Soatov "Mahalliy kirish tarmoqlarida optik kanallardan foydalanishning optimal yechimlarini ishlab chiqish va modelini yaratish" (t.f.n., dotsent A.M.Eshmuradov rahbarligida) mavzularida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun dissertatsiya ustida ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

Kafedra o'qituvchilari telekommunikatsiya, dasturlash texnologiyalari yo'nalishlari bo'yicha Hindiston (ass. X.G. Soatov), Koreya Respublikasi (ass. X.G.Soatov, R.X.Nasimov, ass. J.A.Abdujalilov, A.A.Muradova), Yaponiya, Xitoy (k.o'q. M.B.Abdujapparova, dots. S.A.Sadchikova), Belgiya, Malayziya, Shveysariya, Singapur, Gretsiya mamlakatlari yetakchi universitetlarida, o'quv markazlarida malaka oshirib qaytdilar. Kafedra NEC (Yaponiya), SHANHAY BELL, ZTE, Huawei (Xitoy), Daewoo (Koreya), Siemens (Germaniya) firmalarining Toshkentdagi vakolatxonalarini mutaxassislari bilan ham doimiy aloqada bo'lib kelmoqda.

So'nggi ikki o'quv yili davomida kafedra a'zolari tomonidan "TATU xabarlari", "Muhammad al-Xorazmiy avlodlari" ToshDTU xabarlari, The Advanced Science Journal (USA) jurnallarida 30 ta ilmiy maqola, Xalqaro, Respublika va universitet konferensiyalarida 100 dan ortiq ilmiy maqolalar e'lon qilindi.

Universitet rektori bo'yrug'iga asosan "Telekommunikatsiya injiniringi" kafedrasini o'qituvchilari "Telekommunikatsiya texnologiyalari" fakul'tetining 12 ta akademik guruhlariga murabbiy etib tayinlanganlar. Kafedra o'qituvchilari o'zlariga birlashtirilgan guruh talabalari bilan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-ahloqiy va tarbiyaviy ishlar olib borishadi.

Guruh murabbiylari murabbiylik soatlarida talabalarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", odob-ahloq qoidalari, universitetning ichki tartib qoidalari va soha korxonalarini faoliyati bilan tanishtirib boradilar. Guruh talabalari madaniy-ahloqiy ishlar bo'yicha universitetda o'tkazilayotgan turli tadbirlarda va bayramlarda ishtirok etib kelmoqdalar. Murabbiylar shuningdek reja asosida talabalarning Aloqa muzeyi, Xotira xiyoboni, Amir Temur muzeyi, Yoshlar ijodiy uyi, Alisher Navoiy nomli milliy kutubxona va soha korxonalaridan "O'zbektelekom" AK "Telekommunikatsiyalar va personalni rivojlantirish markazi" filiali, "UzMobile" korxonalariga ekskursiyasini uyushtirib boradilar. Ma'naviyat va ma'rifat soatlarida "Muomala madaniyati", "Xalq an'analari va urf-odatlarini yoshlar tarbiyasining asosi", "Buyuk allomalarimizning ibratli hayoti", "Ogohlik davr talabi", "Terrorizmga qarshi kurash", "Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash" mavzularida suhbatlar olib borishadi.

Kafedrada shuningdek ustoz-shogird tizimi bo'yicha kafedraning yetakchi o'qituvchilari R.I.Isaev, A.M.Eshmuradov, N.X.Gulto'rayevlar magistratura bosqichidagi talabalar bilan muntazam ravishda shug'ullanib kelmoqdalar.

## Bakalavriat

5350100

"Telekommunikatsiya texnologiyalari" (Telekommunikatsiyalar, Teleradioeittirish, Mobil tizimlar)

## Magistratura

5A330501

"Telekommunikatsiya injiniringi" («Axborotlarni uzatish tizimlari»)

## Kafedrada o'qitiladigan fanlar

### Bakalavriat:

- Internet tarmoqlari va xizmatlari
- Multimediali aloqa tarmoqlari
- Keng polosali tarmoqlar
- Telekommunikatsiya tarmoqlari
- Keyingi avlod konvergent tarmoqlari
- Optik aloqa tizimlari
- Telekommunikatsiya uzatish tizimlari (maxsus fakultet kursantlari uchun)
- Kommutatsiya tizimlari (maxsus fakultet kursantlari uchun)

### Magistratura:

- Nazorat o'lchov qurilmalari
- IMS asosidagi multiservisli tarmoqlar
- Telekommunikatsiya tarmoqlarining ishonchliligi
- Patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatlashtirish.

## Kafedra professor o'qituvchilari

- Eshmuradov Abdimurod Mengtashevich – kafedra mudiri, t.f.n., dotsent
- Isaev Rixsi Isaxodjaevich – t.f.n., professor
- Gulto'raev Nurilla Xabibullaevich – t.f.n. dotsent
- Sadchikova Svetlana Aleksandrovna – t.f.n. dotsent
- Radjapova Ra'no Nuritdinovna – dotsent v.b.
- Abdujapparova Mubarak Baltabaevna – katta o'qituvchi
- Mirazimova Gulnora Xasanovna – katta o'qituvchi
- Normatova Dilbar Turgunovna – katta o'qituvchi
- Ibatova Dildora Xasanovna – katta o'qituvchi
- Soatov Xusan Gayratovich – assistent
- Nasimov Rashid Xamid o'g'li – assistent
- Muradova Alevtina Aleksandrovna – assistent
- Xaytbaev Aybek Fayzullaevich – assistent
- Muzaffarov Farrux Adxamovich – assistent
- Davletova Xolisa Rahimdjanovna - assistent
- Kadirova Laylo Imomaliyevna - stajyor o'qituvchi

## Kafedra faoliyat olib boruvchi o'rindosh professor-o'qituvchilar:

- Muxitdinov Hakim Asrorovich- i.f.n., dotsent
- Arifdjanov Akmal Zakirdjanovich -katta o'qituvchi
- Ismanov Qobil Abduraxmonovich-assistent
- Abduljalilov Javlon Adilovich-assistent

## Bajarilayotgan davlat va chet el grantlari

- «Исследование и разработка метода планирования уровня оптического доступа телекоммуникационной сети Узбекистана» (t.f.n., dotsent A.M.Eshmuradov)
- «Модернизация городских и сельских сетей телекоммуникаций на основе оптических систем передач информации» (A.Z.Arifdjanov)
- «Исследование надежности волоконно-оптических кабелей связи» (t.f.n. professor R.I.Isaev)
- «Разработка аппаратно-программного СКЗИ абонентского засекречивания» (t.f.n. professor R.I.Isaev)
- «Исследование и разработка информационно-измерительной системы мониторинга функционирования автономных солнечных электростанций объектов связи» (t.f.n. professor R.I.Isaev)

## Kafedraning ilmiy-uslubiy ishlari

- Eshmuradov A.M., Soatov X.G., Muzafarov F.A.-"Internet tarmoqlari va xizmatlari". (Darslik). -T.: "Aloqachi", 2017, 476 bet.
- Эшмуратов А.М., Садчикова С.А., Абдужаппарова М.Б. -"Широкополосные сети". Методическое пособие. -Т.: "Алокачи", 2017, 216 стр.
- Исаев Р.И. -"Мультимедийные сети связи". Учебное пособие. -Т.: TATU, 2016, 178 стр.
- Radjapova R.N. -"Keyingi avlod konvergent tarmoqlari". O'quv qo'llanma. -T.: "Aloqachi", 2017, 240 bet.
- Mirazimova G.X., Yunusov N.Yu. -"Optik aloqa tizimlari". Uslubiy qo'llanma. -T.: "Aloqachi", 2017, 196 bet.
- Ibatova D.X. -"Mul'timediali aloqa tarmoqlari". O'quv qo'llanma. T.: TATU, 2017, 259 bet.
- Yunusov N.Yu -"Patentshunoslilik, litsenziyalash va sertifikatlashtirish". O'quv qo'llanma. -T.: TATU, 2016, 147 bet.

## Kafedraning rivojlanishidagi halqaro hamkorliklar

- KAIST, INHA universitetlari (Janubiy Koreya);
- Drezden texnika universiteti (Germaniya);
- Vebster universiteti (AQSH);
- Ilg'or axborot texnologiyalarini rivojlantirish markazi, CDAC (Hindiston);
- Rossiyaning yetakchi universitetlari.

## Kafedraning soha korxonalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalari

- "O'zbektelekom" AK;

- "O'zbektelekom" AK "Telekommunikatsiya transport tarmog'i" filiali;
- "O'zbektelekom" AK "Telekommunikatsiya va personalni rivojlantirish markazi" filiali;
- "O'zbektelekom" AK "Toshkent shahar telefon tarmog'i" filiali;
- "O'zbektelekom" AK "ToshTelekom" filiali;
- [UNICON.UZ](#) DUK;
- "Huawei" korporatsiyasi mintaqaviy filiali;
- "ZTE" korporatsiyasi mintaqaviy filiali.